

YANGI O'ZBEKISTONNING ILM-FAN TARAQQIYOTIDA AYOLLAR O'RNI

Dinora Eshboyeva,

O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi

Islomshunoslik yo'nalishi, 2-bosqich talabasi

dinoraeshboyeva23@gmail.com

Ilmiy rahbar: Eshboyeva Durdonha,

O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi

Chet tillari kafedrasi o'qituvchisi

eshboyevadurdona@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada shiddat bilan rivojlanayotgan Yangi O'zbekistonda ayollarga berilayotgan e'tibor, xususan ularning ilm olishi va ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishiga yaratib berilayotgan imkoniyatlar aks ettirilgan. Shuningdek, ushbu soha yuzasidan xotin-qizlar uchun qabul qilinayotgan qonun, qaror, farmon va farmoyishlar hamda ularning mazmuni muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: qonun, ilm-fan, ilmiy faoliyat, gender tengligi, ta'lim sohasi, maxsus stipendiya, ijtimoiy himoya, innovatsion g'oyalar, imtiyozlar, bakalavr, magistratura, doktorantura.

Dadil qadamlar bilan taraqqiy etayotgan Yangi O'zbekistonda barcha sohalar qatori ilm-fan va ilmiy salohiyatga ham yuqori e'tibor berilmoqda. Bu borada Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan ko'plab qaror, farmon va farmoyishlar qabul qilinmoqda. Ushbu hujjatlarda nafaqat ilm-fan taraqqiyoti va ilmiy salohiyatni rivojlantirishga, balki bu boradagi ishlarga xotin-qizlarni ham jalg qilish va ilmiy tadqiqot ishlarida ularning ham ishtirokini ta'minlash kabi masalalar ham o'z ifodasini topgan. 2019-yil 2-sentabrda qabul qilingan "Xotin-qizlar va

erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g“risida” qonunda shunday deyiladi: “Xotin-qizlar va erkaklarning ta’lim olish, qayta tayyorlash va malaka oshirishning barcha turlaridan foydalanishga, ta’lim va ilmiy jarayonni amalga oshirishda ishtirok etishga hamda madaniyatdan, madaniy qadriyatlar va merosdan foydalanishga doir teng huquq va imkoniyatlarini ta’minlaydi”¹. O‘zbekistonda xotin-qizlarning ilm olishi va ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanishi davlat tomonidan kafolatlanganligi va xotin-qizlarning barcha sohadagi huquq va imkoniyatlari davlat tomonidan himoyalanganligini yuqoridagi qonunda ham ko‘rishimiz mumkin. Muqaddas dinimizda ham ilm olishga rag‘bat kuchli bo‘lib, “Bilim olish har bir musulmon ayol va erkak uchun farzdir” deyiladi. Hattoki, ushbu so‘zlar 1417-yil qurilgan Buxorodagi Ulug‘bek madrasasi peshtoqlariga ham yozilgan. Ilm olishning farzligida birinchi ayollarga nisbat berilishi ham, ularning ilm olishlari nechog‘lik katta ahamiyatga ega ekanligidan dalolatdir. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan talaba qizlarimiz uchun “Qizlar uchun maxsus stipendiya”si joriy etilgan bo‘lib, ushbu stipendiyani ijtimoiy himoyaga muhtoj va “a’lo” baholarga o‘qiyotgan talaba qizlarimiz olish imkoniyatiga egalar. Bu ham davlatimiz tomonidan xotin-qizlarning ilm olish va ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanishi uchun yaratilayotgan imkoniyatlardan biridir. Shuningdek, bakalavr darajasida o‘qishga qabul qilish ishlarida ham samarali natijalarga erishildi. 2021-yilda Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi tavsiyanomalari asosida 2 ming nafar ehtiyojmand oilalar qizlari qo‘srimcha grant asosida talabalikka qabul qilindi. 2020-yilgi qabulda bunday xotin-qizlar uchun 940 ta grant o‘rni ajratilgandi. Bir yilda ayol-qizlar uchun ajratilgan o‘rinlar sonining oshishi ham davlatimiz tomonidan ko‘rsatilayotgan e’tibor natijasidir. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 28-mayda “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida” qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda quyidagilar qayd etiladi: “Ta’lim, ilm-

¹ <https://lex.uz/docs/-4494849>
www.pedagoglar.uz

fan, sport hamda sog‘liqni saqlash sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish zarur: uzluksiz ta’lim tizimini rivojlantirish, xotin-qizlar va erkaklarni butun umr davomida o‘qishga bo‘lgan imkoniyatlarini rag‘batlantirish, ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarni oliy ta’lim bilan qamrab olinishini kengaytirish, xotin-qizlarni ilmiy faoliyatga keng jalb qilish, ularning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan dasturiy ishlanmalarini, innovatsion g‘oyalarini, ixtirochilik, ratsionalizatorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash”². Albatta, har bir insonning tarbiyasida onaning o‘rni beqiyosdir. Shu jihatdan ham xalqning ma’naviyatli va yetuk jamiyat bo‘lib shakllanishida ayollarning o‘rni katta ahamiyatga ega. Davlatimiz tomonidan bu kabi jihatlar teran tushunilib, bu to‘g‘risida qonun va qarorlar qabul qilinmoqda. Uchinchi Renessans g‘oyasi bilan taraqqiyotga qadam qo‘yayotgan yurtimizda ta’lim sohasiga juda katta e’tibor berilmoqda. Albatta, har bir o‘zgarish oiladan boshlanadi, xususan, ta’lim sohasidagi o‘zgarishni ham oiladan ya’ni yosh avloddan boshlash kerak. Yosh avloda tarbiysi va ularning ilm olishlarida onalarning o‘rni beqiyosdir. Agar ona ilmli bo‘lsa, farzandini ham ilmgaga qiziqtira oladi va bu uchun sharoit yaratib beradi. Shuning uchun ham mamlakatimizda ayollarning ilm olishlariga katta e’tibor berilib, ular uchun barcha imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Xususan, ommaviy axborot vositalarida³ e’lon qilinishicha, Prezident ishtirokidagi xotin-qizlar masalalariga bag‘ishlangan videoselektorda qizlar ta’limi uchun bir qancha imtiyozlar berilishi ma’lum qilindi. Ayollar ta’limi uchun O‘zbekistonda mavjud imkoniyatlar:

1. 2022-2023 o‘quv yilidan boshlab magistraturada o‘qiyotgan qizlar kontrakt puli to‘liq budjetdan qoplab beriladi (23 ming nafar qizlarga 200 milliard so‘m).
2. Har yili 50 nafar qizlar nufuzli xorijiy oliygohlarga bakalavr va 10 nafari magistraturaga yuboriladi.

² <https://lex.uz/docs/-5466673#-5467842>

³ <https://kun.uz/uz/98308208>

3. Har bir viloyatda ehtiyojmand oila vakillari, ota yoki onasini yo‘qotgan 150 nafar qizlar (jami 2,1 ming nafar) ta’lim kontrakti mahalliy budgetdan to‘lab beriladi.
4. Yosh farzandi bor talaba-qizlarga masofaviy o‘qishga sharoit yaratiladi.
5. Doktorantura yo‘nalishida xotin-qizlar uchun har yili kamida 300 tadan maqsadli kvota ajratiladi.
6. Har yili xotin-qizlar talaba bo‘lishiga kvotaning kamida 50 foizi aniq fanlar, texnika va huquqshunoslik yo‘nalishlari uchun maqsadli ajratiladi.
7. Yangi o‘quv yilidan boshlab oliygoh, texnikum va kollejlarda o‘qiyotgan qizlarga ta’lim kontraktlarini to‘lash uchun ilk marta 7 yil muddatga foizsiz kredit berish joriy qilinadi.

Albatta, bu yangiliklar oldingi yillarga nisbatan ancha samarali va keng qamrovli bo‘ldi. Bu kabi ayollar uchun yaratilayotgan barcha imkoniyatlar Yangi O‘zbekistonda ilm-fan sohasida ayollar o‘rnining ortishiga turki bo‘lmoqda. Shuningdek, ilmiy faoliyat bilan shug‘ullangan xotin-qizlar uchun “Zulfiya”, “Hamshira” kabi davlat mukofotlari ta’sis etilgan bo‘lib, har yili bir nechta qizlarning ilmiy faoliyati yuqori baholanib, bu mukofotlar bilan taqdirlanmoqda. Bunday imkoniyatlardan unumli foydalanib yurtimiz taraqqiyotiga o‘z hissamizni qo‘shishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oynisa Hojiyeva. Ayol va jamiyat.
2. “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida” qonun. 2019.
3. “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida” qaror. 2021.
4. <https://kun.uz/uz/98308208>